O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI
SAMARKAND BRANCH OF TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS
TDIU SF

“O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH TENDENSIYALARI”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI

22–23 MAY 2026 YIL



Tashkiliy qo‘mita a’zolari:

Murtazaev Olim
Tashkiliy qo‘mita raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori, i.f.d., professor

G'aniyev Ibragim Mamadiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, i.f.n., dotsent

Abdullayev Zafar Xasanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, i.f.f.d. PhD, dotsent

Taniyev Ahmadjon Bahromovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va moliya” fakulteti dekani, i.f.d., professor

Abduvohidov Sunatillo Abdinabiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig’i

Mardonov Mamed Shavkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi mudiri, PhD.,dotsent

Xikmatov Xakimxon Xamzaevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi dotsenti, i.f.n

Rabbimov Elbek Abdulloyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi dotsenti, PhD.

“O’zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish tendensiyalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Samarqand. TDIU SF, 2026 yil**.**

Nashr uchun mas’ul: M.Sh.Mardonov -PhD.,dotsent

Tahririyat hay’ati raisi:
O. Murtazayev - i.f.d, professor

Tahririyat hay’ati a’zolari:

Z.X. Abdullayev	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
M.Sh.Mardonov	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
N.Xalilov	iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
X.X.Xikmatov	iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
X.Ibayev	iqtisodiyot fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi
E.A.Rabbimov	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Texnik muharirlar:

U.T.Umirov	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
N.A.Narzullayev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
B.A.Mirzayev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
I.I.G‘afforov	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
O.F.Ergashev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

A.B.Taniyev	iqtisodiyot fanlari doktori, professor
K.B. Urazov	iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ushbu to‘plamga 2026 yil 22-23 may kunlari Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida “O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish tendensiyalari” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjuman qatnashchilarining ma’ruza materiallari kiritilgan. Ushbu to‘plam OTM professor-o‘qituvchilari, doktarant va mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar shuningdek iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan iqtisodchi hamda amaliyotchi buxgalterlar uchun mo‘ljallangan. Maqolalar mualliflar tahririda bosilgan. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

36.	**MICROECONOMIC DETERMINANTS OF FARMERS' ADAPTATION BEHAVIOUR UNDER WATER STRESS: EVIDENCE FROM THE ZERAFSHAN RIVER BASIN** *Babakholov Sherzod Bakhtiyorovich*	262
37.	**QISHLOQ AHOLISINI RAQAMLI QAMRAB OLISHNING (DIGITAL INCLUSION) ULARNING TURMUSH DARAJASIGA TA’SIRINI MODELLASHTIRISH.** **(Samarqand viloyati misolida)** *Elyor O‘rozaliyev Shuxrat o‘g‘li*	273
38.	**SAMARQAND SHAHAR YO‘LLARIDA TRANSPORT TIRBANDLIGINI OPTIMALLASHTIRISH VA “YASHIL OQIM” TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISHNING STATISTIK TAHLILI** *Xalilov N. X, Xikmatov X. X., Nazarqosimova Ruqiya Ziyadulla qizi, A.E. Qurbaniyazov.*	284
39.	**SEGMENTLAR VA JAVOBGARLIK MARKAZLARI HISOBINI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLARI VA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI** *U.A.Shirinov*	295
40.	**SUV RESURSLARIDAN QAYTA FOYDALANISHNING SAMARADORLIGINI STATISTIK TAHLILI VA MULOHAZALAR** Xalilov N. X., Xikmatov X. X., Mallayev Asadbek Mixli o‘g‘li, Obloqulova Moxidil Shuxratovna.	306
41.	**TIBBIYOT TURIZMI - O‘ZBEKISTON TURIZM SANOATINING YETAKCHI YO‘NALISHI SIFATIDA** Vafoxodjayeva Dilafruz Marufovna , Umirov Ulug’bek Tayirbayevich	317
42.	**FERMER XO‘JALIKLARIDA YERGA EGALIK HUQUQINI YO‘QOTISH XAVFINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARI** Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich	324
43.	**HUDUDIY TURIZM INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI** Raximov Abror Zafarovich	330
44.	**TURIZM TADBIRKORLIGI SUB’EKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISHDA STRATEGIK YONDASHUVLAR** Dilafruz Mardonova	334
45.	**XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA’SIRI**. Xudayarova Maftuna Shavkatovna, Zaripova Sharifa Jasurbek qizi	340
III SHO‘BA. — Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llashning amaliy jihatlari		
46.	**SUG’URTA KORXONALARIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ULARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI** Shirinova Obida Toshpo’latovna	349

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA’SIRI.

Xudayarova Maftuna Shavkatovna
(+99 893 355 50 45, maftuna.khudayarova.89@gmail.com),
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi assistenti
Zaripova Sharifa Jasurbek qizi
(+998 93 150 78 83, gofurovh721@gmail.com),
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
BB-125 guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarning ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda axborot iqtisodiyoti, elektron tijorat, onlayn xizmatlar va raqamli platformalarning xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda 2015–2024-yillar davomida axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi asosida sohaning rivojlanish tendensiyalari baholangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.*

Kalit so’zlar. *Tadbirkorlik faoliyati, raqamli texnologiyalar, bozor iqtisodiyoti, kichik biznes, xizmat ko’rsatish sohasi, tadbirkorlik kapitali, iqtisodiy resurslar, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya.*

KIRISH. Tadbirkorlik - bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi ijodkorlik, yangiliklar yaratish orqali samaradorlik darajasini oshirish va ko’proq foyda olishga qaratilgan faoliyatdir. Takidlash joizki, ayni biznes faoliyatiga nisbatan keng tushuncha bo'lib, umuman foyda olish nuqtayi nazaridan yuritiluvchi faoliyatdir. Ayni hozirgi kunga kelib bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik tushunchasi o’zining katta o’rniga ega va doimiy iqtisodiy rivojlanish sohalarida yangiliklar yaratish va o’z raqiblarini ortda qoldirish maqsadida, ayniqsa bozor iqtisodiyotida o’z o’rniga ega bo’lish maqsadida yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Shunday ekan hozirgi globallashuv davrida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro raqobatlashuv kurashining keskinlashib borishi ushbu turdagi faoliyatni amalga oshirishning texnologik jihatdan takomillashishiga sabab bo‘lib, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan

foydalanish asosida bir tarafdan ishlab chiqarish, ikkinchi tarafdan xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirishga erishilayotganligi bozor iqtisodiyoti rivojlanishining sezilarli darajada o’sib borayotganini anglatadi. Bugungi kunda innovatsion iqtisodiy tizimni shakllantirish, milliy iqtisodiyotni texnologik jihatdan rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish kabi qator iqtisodiy islohot yo‘nalishlarida milliy iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasidan qat’i nazar, har qanday mamlakatda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga juda katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Ushbu holat global qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishdagi baynalmilallashuv jarayonlari samaradorligini ta’minlash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalaninsh, xususan, tadbirkorlik subyektlarining iqrisodiy muvozanat shaklini yo’qotmaslik va doimiy rivojlanish darajasida bo’lishini ta’minlashga yordam beruvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tadbirkorlikning rivojlanishi, o‘z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo‘lishini taqozo etib, ular asosida tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g‘risida»gi qonunida ta’riflanishicha «Tadbirkorlik - yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas’uliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad yoki foyda olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir»[91] [1] deya takidlanadi. Hamda, K.Makkonnell va S.Bryu tadbirkorlik asosida uzluksiz shartlar va talablar yotuvchi muhim faoliyat turi sifatida qaraydilar. Bunda, **Birinchidan,** tadbirkor tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va «katalizator» vazifasini bajaradi. **Ikkinchidan,** 179 biznesni yuritish jarayonida u qaforlar qabul qilishdek qiyin bir vazifani zimmasiga oladi. **Uchinchidan,** tadbirkor-tashkilotchi shaxs bo‘lib, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi. **To‘rtinchidan,** tadbirkor bu tahlikaga boruvchi insondir. U nafaqat o‘z mol-mulki, vaqti, mehnati bilan, balki

[91]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5030957

o‘z sheriklarihissadorlari qo‘shgan mablag‘lar bilan ham tahlikaga boradi [92][2] degan fikr-mulohazalarni oldinga surishgan.

METODOLOGIYA. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, analiz va sintez , qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, induksiya va deduksiya, monologik tahlil va guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Hozirgi kunda ayni xizmat ko’rsataish sohasida raqamli texnologiyalarning o’rni sezilarli darajada bo’lgan ko’plab sohalarni misol sifatida ko’rib chiqishimiz mumkin. Masalan moliya va bank xizmatlari (Fin Tech), chakana savdo va elektron tijorat (E-commerence), transport va yetkazib berish (Logistika), ta’lim xizmatlari (Ed tech), sog’liqni saqlash (Health Tech), turizm va mehmonxona biznesi (Turism) kabi sohalarni alohida takidlab o’tishimiz joiz. Endi ayni moliya va bank xizmatlari sohasiga to’xtaladigan bo’lsak , bilamizki hozirda an’anaviy bank filiallari o’rnini turli mobile ilovalar egalladi. Online to’lov xizmatlari (masalan Payme, Click), raqamli hamyonlar va kreditlarni skoring modellar yordamida avtomatlashtirilgan tarzda ajratish mexanizmlari joriy etildi. Yoki chakana savdo va elektron tijorat sohasiga to’xtaladigan bo’lsak turli online do’konlar , mobile ilovalar va turlicha marketplayeslar (Uzum, Amazon, Alibaba) an’anaviy savdo do’konlarni siqib chiqarmoqda. Shuningdek logistika, yetkazib berish sohalarida ham raqamli texnologiyalarning o’rni kengayib bormoqda jumladan agregatorlar (masalan Yandex Go) kabi online platformalar taksi va yetkazib berish berish xizmatlari bozorini butunlay o’zgartirdi. Bu esa GPS-treking va logistika zanjirini raqamli boshqarish samaradorligini keskin oshirdi. Ayni bu sohalardan tashqari yuqorida sanab o’tilgan sohalarimizda ham shu va shunga o’xshash bir qancha yirik o’zgarishlarni ko’rishimiz va barchasiga raqamli texnologiyalarning ta’siri qay darajada ijobiy samaradorlik berayotganiga guvoh bo’lishimiz mumkin.Raqamli texnologiyalar xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik faoliyatida mavjud vositachilarni son jihatidan qisqartirish, vaqtni tejash – tezkorlik, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga qulaylik yaratish orqali an’anaviy biznes modellarini to’liq transformatsiya qildi. Shuningdek, xizmat ko’rsatish sohasidagi raqamli transformatsiyani nafaqat xususiy sektorlar bilan birga balki , hozirda mamlakatimiz aholisining katta qismi foydalanib kelayotgan My.gov.uz kabi davlat platformalari ham misol qilishimiz kumkin. U tadbirkorlik subyektlarini

[92] A. Osterwalder and J. Euchner, “Business Model Innovation: An Interview with Alex Osterwalder,” ResearchTechnology Management, vol. 62, no. 4, pp. 12–18, 2019.

ro’yxatdan o’tkazishdan tortib, litsenziyalashgacha bo’lgan barcha bo’g’inlarni raqamlashtirish orqali biznes yuritish samaradorligini oshirdi. Bu esa xizmat ko’rsatish bozorida byurokratiyani kamaytirib , innovatsion xizmatlar turining ko’payishiga to’g’ridan -to’g’ri xizmat qilmoqda. Natijada ushbu platformadan foydalanuvchilar soni ham kundan kunga ortib bormoqda.

Xizmat ko’rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarning jalb qilinishi va keng qo’llanilishi so’ngi yillarda sezilarli darajada jadallashdi va bu jarayon bozor iqtisodiyoitining yanada rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatmoqda. Shuningdek, so’ngi yillardada olib borilgan tahlillar asosida shunday fikr bildirish mumkin, ya’ni raqamli innovatsion texnologiyalar tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko’rsatish sifatini yanada oshirish, vaqtni tejash va undan unumli foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va eng asosiysi mijozlar bilan aloqalarni yanada samarali yo’lga qo’yish imkonini bermoqda. **Birinchidan,** raqamli texnologiyalar, platformalar va online xizmatlarning kenggayishi ta’sirida xizmat ko’rsatish jarayoni ham avtomatlashtirilmoqda. Buning natijasida xizmat sifati yanada oshib bormoqda va xizmat ko’rsatish sohasida inson omili ba’zi yo’l qo’yadigan xato va kamchiliklari to’g’irlanmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalar va online platformalarning yana bir ulkan ijobiy ta’siri shundan iboratki, bu vaqtni samarali boshqarish va tezlikni oshirish demakdir. Misol uchun elektron to’lov tizimlari, online buyurtmalar yoki bron qilish platformalari orqali tadbirkor o’z mijozlariga qulay va tezkor xizmat ko’rsatish imkoniyatiga eha bo’lmoqda. Bu shuni anglatadiki, tadbirkor ko’zlagan maqsadiga yana bir pog’ona yaqinlashdi va ko’zlangan ma’lum foydani qo’lga kiritish imkoniyati mavjud. **Ikkinchidan,** raqamli texnologiyalarning o’rni kapital aylanish tezligini oshirishda ham muhim. Tadbirkorlik kapitali - bu tadbirkor ixtiyorida bo‘lib, foyda olish maqsadida ishlatiladigan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag‘lar demakdir. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo harakatda bo‘ladi va mahsulot ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonlarida muhim o’rin egallaydi. Elektron savdo, mobile ilovalar yoki CRM tizimlari yordamida tadbirkorlar o’z iqtisodiy faoliyatini real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatiga ega bo’lib, bu esa moliyaviy resurslardan samarali foydalana olish ko’nikmalarining rivojlanishiga ham turtki bo’lmoqda. Buning natijasida esa kapitalning aylanishi tezlashib, foyda olish darajasi esa oshib bormoqda. **Uchinchidan,** mijozlar e’tiborini tortish va jalb qilish maqsadida qo’llanilayotgan marketing jarayonlarida ham ijobiy natijalar qo’lga kiritilmoqda. Raqamli

reklama vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ma’lumotlar tahlili (big data) orqali tadbirkorlar o’z maqsadli auditoriyasini aniq belgilab, yanada samarali va sifatli xizmatlarni taqdim etmoqda. Bu esa xizmat ko’rsatish sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Raqobatbardoshlik tamoyili tadbirkorlik faoliyatida muhim tushunchalardan biri hisoblanadi va raqobatbardoshlik ko’nikmalari yuqori bo’lgan tadbirkor o’z raqiblariga qarshi turli xil taktikalarni qo’llay oladi.

Raqamli transformatsiyalashuv yo‘nalishida ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar tarkibiy jihatdan biznes model transformatsiyasi, raqamli strategiya va raqamli salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlardan tashkil topgan hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy-tashkiliy nazariyalar turkumiga kiruvchi ilmiy yondashuvlar tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish hisobiga ishchi kuchi, korxonaning ichki kommunikatsion tuzilmasi va rahbariyat faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Mazkur guruh tarkibiga ijtimoiy-texnik tizim nazariyalari, bilimlarni boshqarish (Knowledge Management) yondashuvlari bilan bir qatorda dasturiy ta’minotni rivojlantirish (Software Development) ilmiy maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan “Agile & Scrum” uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlarni kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi 2015–2024-yillar davomida izchil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Mazkur ko‘rsatkich 2015-yilda 1,93 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 4,08 foizga yetgan. Bu esa tahlil qilinayotgan davr mobaynida ko‘rsatkich qariyb 2,1 barobarga oshganini anglatadi hamda mamlakat iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar va elektron tijoratning roli tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval


Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)[93]

Hududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respub-likasi	1,93	2,13	2,1	1,91	1,61	1,82	2,3	3,06	3,56	4,08

Ko’rinib turibdiki, 2015–2017-yillarda ko‘rsatkichlar nisbatan barqaror bo‘lib, 2 foiz atrofida shakllangan. 2018–2019-yillarda esa ma’lum darajada pasayish kuzatilib, 2019-yilda eng quyi ko‘rsatkich — 1,61 foiz qayd etilgan. Bu

[93] Statistika integrallashgan axborot tizimi. https://siat.stat.uz/reports-filed/3052/table-data

holat iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani hamda elektron xizmatlardan foydalanish darajasining cheklanganligi bilan izohlanishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. **Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)**

2020-yildan boshlab esa sezilarli o‘sish bosqichi boshlangan. Xususan, pandemiya davrida masofaviy xizmatlar, onlayn savdo, elektron to‘lov tizimlari, internet platformalari va raqamli biznes modellarga talab keskin oshdi. Natijada 2021-yilda ko‘rsatkich 2,3 foizni, 2022-yilda 3,06 foizni, 2023-yilda 3,56 foizni hamda 2024-yilda 4,08 foizni tashkil etdi. Ayniqsa, 2021–2024-yillar oralig‘idagi yuqori o‘sish sur’atlari xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining tobora raqamlashtirilayotganini ko‘rsatadi. Mazkur tendensiya raqamli texnologiyalarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta’sirini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, elektron tijorat platformalari orqali tadbirkorlar o‘z mahsulot va xizmatlarini kengroq bozorlarga taklif qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, mobil ilovalar, elektron to‘lov tizimlari, sun’iy intellekt va internet marketing vositalari xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirib, xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, elektron hukumat xizmatlarini kengaytirish, internet infratuzilmasini takomillashtirish hamda IT sohasi uchun qulay investitsion muhit yaratishga qaratilgan islohotlar ham ushbu o‘sishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorining YaIMdagi ulushi ortib borishi mamlakatda xizmat ko‘rsatish sohasining modernizatsiyalashuvi va tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanayotganidan dalolat beradi.

XULOSA. Yuqoridagi tahlillardan ko’rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar xizmat ko’rsatish sohasidagi tadbirkorlikning shunchaki yordamchi vositasi emas, balki uning kelajak rivoji uchun ham tayanch vazifasini o’z zimmasiga olgan. Bugungi kunda esa muvaffaqiyatli tadbirkor bo’lish nafaqat sifatli xizmat ko’rsatishni , balki zamonaviy raqamli platformalar va texnologik yechimlardan samarali foydalana olish qobiliyatini ham talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Innovatsin texnologiyalar nafaqat xizmat ko’rsatish sifatini oshirish, balki tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini ta’minlash, kapitaldan unumli foydalanish darajasini oshirish va bozor iqtisodiyotidagi barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo’lmoqda. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar xizmat ko’rsatish sohasida yangi biznes modellarini shakllantirish, kichik va o’rta biznes subyektlarining faoliyat darajasini kengaytirish va yagicha qarashlar orqali takomillashtirish va doimiy tarzda takomillashib borish strategiyasini amalga oshirishga undamoqda. Shuningdek, global bozorlarga integratsiyalashuviga zamin yaratmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqamli rivojlanish darajasini oshirishda omil sifatida xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonlari tadbirkorlik subyektlaridan yangi bilim va ko’nikmalarni shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun kelgusida xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion yondashuvlarni qo’llab-quvvatlash va kadrlar bilim malakalarini oshirish muhim masalalardan biri bo’lib qo’lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5030957

2. A. Osterwalder and J. Euchner, “Business Model Innovation: An Interview with Alex Osterwalder,” ResearchTechnology Management, vol. 62, no. 4, pp. 12–18, 2019.

3. N.P. Gimede and B. Tladi, “Socio-Technical Systems: Using Actor-Network Theory to Make the Social More Tangible in a Technical Space,” South African Journal of Industrial Engineering, vol. 34, no. 3, pp. 140–155, Nov. 2023.

4. Chr. Schunemann, S. Johanning, H. Herold, and T. Bruckner, “Modelling the behaviour in socio-technical systems for policy assessment - A comparison of modelling approaches using the example of Sponge City concept implementation,” Journal of Cleaner Production, vol. 462, pp. 1–13, Jul. 2024, doi: 10.1016/jclepro.2024.142722.

5. Quvandiqov Sh.O. Xudayarova M.Sh. Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi “Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.2023-yil 20-sentabr. Samarqand.

Bosishga ruxsat etildi 13. 06. 2026 yil.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16-
Times New Roman garniturasi.
Shartli hisob tabog'i - 36,31. Nashriyot hisob tabog‘i - 16,0
Adadi 30 nusxa. Buyurtma № 04/04

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazida chop etildi.
Samarqand sh., Mirzo Ulug'bek k., 77
Tel. 93 359 70 98